


IJTIMOIIY-EKOLOGIK SHARH

Zarafshon vodiysida transchegaraviy tabiatni muhofaza qilishning strategik imkoniyatlari

R. Braitsch, D. Bahriyev



ASOSIY XULOSALAR


Mazkur hisobot amaliy tadqiqot asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u mahalliy, milliy va xalqaro manfaatdor tomonlar bilan o'tkazilgan 35 ta muammoga yo'naltirilgan intervyular, shuningdek dala kuzatuvlari, sun'iy yo'ldosh tasvirlarining vizual izohi hamda ilmiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlar tahlili natijasida tayyorlangan.

O'tkazilgan tadqiqotlar transchegaraviy tabiatni muhofaza qilish faoliyatining rivojlanishi uchun real salohiyat mavjudligidan dalolat beruvchi muhim o'zgarishlarni ko'rsatmoqda.

Ushbu salohiyatni amaliy transchegaraviy tabiatni muhofaza qilish jarayoniga aylantirish uchun hamkorlikni loyiha doirasidan chiqarib, institutsional darajaga ko'tarish, uni faqatgina tabiatni asrash doirasidagi tor tushuncha bilan cheklamay, ko'lamini kengaytirish hamda degradatsiyaga sabab bo'layotgan umumiy ijtimoiy-ekologik drayverlarni bartaraf etishga yo'naltirish lozim. Texnik va institutsional salohiyatni mustahkamlash hamda hamkorlik mexanizmlarini boshqaruv tuzilmalariga integratsiya qilish — ekologik inqirozning yanada chuqurlashishini oldini olish va Zarafshon vodiysining yaxlit ijtimoiy-ekologik tizim sifatida uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashning hal qiluvchi bosqichlaridir.



↑ Zarafshon daryosining o'rta oqimidagi muhofaza qilinadigan hududlar.



MUAMMONING DOLZARBLIGI

Zarafshon daryosining oʻrta oqimi Oʻzbekiston va Tojikiston uchun qadimiy tarixga, boy madaniyatga va unumdor yerlarga ega boʻlgan muhim mintaqa hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hudud Markaziy Osiyodagi eng qimmatli va ayni paytda yoʻqolib borayotgan biotoplardan biri — toʻqay ekotizimining maskanlaridan. Buxoro bugʻusi ushbu ekotizimning asosiy turi hisoblanadi. Ushbu tur har ikki davlatning “Qizil kitob”iga kiritilgan. Shuningdek, u “Koʻchib yuruvchi yovvoyi hayvon turlarini saqlab qolish boʻyicha konvensiyaning” (CMS) I-ilovasiga va CITES (Yoʻqolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi toʻgʻrisidagi konvensiya) II-ilovasiga kiritilgan.


Umumiy ekotizim sifatida Zarafshon vodiysining barqarorligini bir tomonlama choralar bilan taʼminlab boʻlmaydi. Daryoning yuqori oqimida qabul qilingan qarorlar quyi oqimdagi holatga bevosita taʼsir koʻrsatadi va aksincha. Bunday oʻzaro bogʻliqlik transc chegaraviy tabiatni muhofaza qilish yondashuviga nisbatan kuchli ehtiyojni yuzaga keltiradi. Oʻz vaqtida amalga oshirilmagan va muvofiqlashtirilmagan harakatlarsiz, Zarafshon vodiysi oʻzining ekologik ahamiyatini hamda insoniyat farovonligini taʼminlash qobiliyatini yoʻqotish xavfi ostida qoladi. Shu bois hozirgi holat har ikki davlatning hamkorligini, hamda birgalikda



→ Mahalliy jamoalarni
tinglash muhim edi.
Rasm: R. Braitsch

Joriy vaziyat, 2010

Suv sarfi (m³/s)



↑ Zarafshon daryosida suv sarfi. Groll, M., Opp, R., Kulmatov, R., Normatov, I., Stulina, G. & Shermatov, N. (2014) Markaziy Osiyodagi suv resurslari — hozirgi holati va transchegaraviy daryo havzalaridagi kelajakdagi mojarolar — Zarafshon daryosi misolida (Tojikiston-O'zbekiston). Konferensiya maqolasi.

chora ko'rishni talab qiladigan dolzarb siyosiy masalaga aylangan. Ayniqsa iqlim o'zgarishi mavjud ekologik bosimni yanada kuchaytirishi kutilayotgan bir paytda, ushbu hamkorlik zarur va hayotiy ahamiyat kasb etadi.

2025-yil 31-martda hamkorlik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning kuchga kirishi bilan, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning hozirgi darajasi Zarafshon vodiysini ham qamrab oluvchi transchegaraviy tabiatni muhofaza qilish faoliyati uchun qulay strategik imkoniyatlar yaratmoqda.


NATIJARLAR

Transchegaraviy tabiatni muhofaza qilish asosan ekologik omillar bilan asoslanishda davom etmoqda.

Mintaqadagi turli ekologik muammolar orasida Buxoro bug'usini muhofaza qilish transchegaraviy hamkorlik uchun eng keng e'tirof etilgan va qabul qilingan asos bo'lib xizmat qiladi. Yashash muhitining parchalanishi, ekologik degradatsiya va genetik izolyatsiya xavfi muhofaza etiladigan hududlar xodimlari, milliy hukumat idoralari va xalqaro tashkilotlar tomonidan dolzarb tahdidlar sifatida qabul qilinadi. Ushbu guruh vakillari orasida turning uzoq muddatli yashab qolishini faqat bir tomonlama choralar bilan ta'minlab bo'lmasligi borasida umumiy tushuncha shakllangan. Shu bilan birga, to'qay o'rmonlarining tanazzuli, ekotizim xizmatlarining pasayishi, suv resurslarini tartibga solish va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kabi keng ko'lamli tizimli muammolar transchegaraviy yondashuv orqali hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar sifatida kamdan-kam hollarda ko'rib chiqiladi.

Transchegaraviy loyihalarni amalga oshirishda manfaatdor tomonlarning hamkorlikka moyilligi mavjud.

Tadqiqot natijalari har ikki davlatdagi barcha manfaatdor tomonlar guruhlarida transchegaraviy hamkorlikka nisbatan umumiy ochiqlik mavjudligini ko'rsatmoqda, biroq hamkorlikka kirishishda motivatsiyasining chuqurligi sezilarli darajada farq qiladi. So'nggi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy yaqinlashuv ko'pchilik uchun aniq imkoniyatlar oynasi ramzi bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ko'plab tomonlar tarixiy va madaniy sabablarga ko'ra qo'shni davlat bilan o'zlarini chambarchas bog'liq deb hisoblaydilar.





Imkoniyatlar ko‘lamining cheklanganligi transchegaraviy tabiatni muhofaza qilishdagi markaziy muammo sifatida.

Barcha manfaatdor tomonlar guruhlarida texnik, moliyaviy va nazariy salohiyatning cheklanganligi asosiy to‘siq sifatida namoyon bo‘lmoqda. Transchegaraviy tabiatni muhofaza qilish jarayoniga oid bilimlar darajasidagi bo‘shliqlar barcha bosqichlarda saqlanib qolmoqda. Muhofaza etiladigan hududlar xodimlari tomonidan yaqinda o‘tkazilgan treninglar va tajriba almashish tadbirlari salohiyatni oshirishga bo‘lgan intilishni ifodalaydi va bu muhim dastlabki qadamlar hisoblansa-da, ushbu sa’y-harakatlar hali ham manfaatdor tomonlarning kichik bir doirasi bilan cheklanib qolmoqda.

← *Zarafshon daryosi.*
Rasm: S. Shahmedov

SIYOSIY-STRATEGIK TAVSIYALAR

1. BUXORO BUG‘USI MUHOFAZASI — TRANSCHEGARAVIY MULOQOTNING

ASOSI VA BOSHLANG‘ICH NUQTASI SIFATIDA. Buxoro bug‘usi populyatsiyasini transchegaraviy darajada muhofaza qilish zaruriyati keng e‘tirof etilgan maqsad bo‘lib, u hamkorlikni boshlash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Samarali hamkorlik umumiy dalillar bazasini talab etadi. Shu sababli, har ikki davlat monitoring yondashuvlarini o‘zaro muvofiqlashtirishi va muntazam ravishda ma‘lumot almashishni yo‘lga qo‘yishi lozim. Biroq bu jarayonga kengroq tizimli dinamikalarni hal qilish uchun kirish darvozasi sifatida qarash lozim. Shunga ko‘ra faqat tabiatni muhofaza qilishga doir tor doiradagi yondashuvdan voz kechib, Buxoro bug‘usi holatining yomonlashuviga bevosita va bilvosita ta‘sir ko‘rsatuvchi transchegaraviy omillar — yashash muhitining parchalanishi, suv resurslarini boshqarish, tabiiy resurslardan haddan tashqari ko‘p foydalanish va yerdan foydalanish bosimi kabi tizimli muammolarni hal qilish zarur. Bu esa bevosita ikkinchi tavsiyaga asos bo‘ladi:

2. TRANSCHEGARAVIY HAMKORLIK YO‘NALISHLARINI QAMROVLI KENGAYTIRISH.

Transchegaraviy tabiatni muhofaza qilish natijasida yuzaga keladigan barcha manfaat va qiymatlarni yanada chuqurroq anglash zarur. Amalga oshirilayotgan faoliyat turlari biologik xilma-xillikni saqlash bilan bir qatorda, suv resurslarini boshqarish, yerdan foydalanish va ekotizim xizmatlarini ham o‘z ichiga olishi lozim. Transchegaraviy hamkorlikni umumiy ijtimoiy-iqtisodiy masalalar atrofida shakllantirish uning siyosiy ahamiyatini oshiradi, tabiatni muhofaza qilish maqsadlarini taraqqiyot ustuvorliklari bilan muvofiqlashtiradi va ushbu sohaga boshqa tarmoqlarning ham jalb qilinishi uchun imkoniyat yaratadi. Mahalliy yerdan foydalanuvchilar, tuman hokimiyatlari, suv xo‘jaligi idoralari va chegara xizmatlarini transchegaraviy jarayonlarga jalb qilish uchun tabiatni muhofaza qilish maqsadlarini aholi turmush darajasi va manfaatlariga bog‘laydigan ishtirokchilik formatlarini joriy etish talab etiladi. Ijtimoiy asosga ega bo‘lmagan transchegaraviy hamkorlik zaif va samaradorligi cheklangan bo‘lib qolaveradi. Madaniy yaqinlik va hozirgi hamkorlik darajasidan kelib chiqib, ushbu chora-tadbirlar turli darajadagi xalq diplomatiyasini, jumladan, maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi almashinuv dasturlarini ham qamrab olishi lozim.

3. QO‘SHMA MASLAHAT KENGASHINI TASHKIL ETISH VA TRANSCHEGARAVIY HAMKORLIKNI RASMIY-TASHKILY DARAJAGA KO‘TARISH. Transchegaraviy tabiatni muhofaza qilishni tarqoq, loyihalarga asoslangan hamkorlik darajasidan yuqori darajaga ko‘tarish uchun vazirliklar darajasida mustahkamlangan, muloqot va muvofiqlashtirishning doimiy platformasi sifatida Qo‘shma maslahat kengashini tashkil etish lozim. Ushbu tuzilma har ikki davlatning muhofaza etiladigan hududlar ma‘muriyatlari, suv va yerdan foydalanish idoralari, mahalliy yerdan foydalanuvchilar, chegara xizmatlari va tuman darajasidagi muassasalarni birlashtirishi kerak. Kengashning maqsadi — turli xil qarashlar, manfaatlar va cheklovlarni tizimli ravishda tinglanishi, muhokama qilishi hamda qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya qilinishini ta‘minlashdan iborat. Samardorlikka erishish uchun maslahat kengashi hamkorlik maqsadlari, vakolatlari va mas‘uliyatini belgilab beruvchi rasmiy institutsional bazaga ega bo‘lishi shart. Ikki tomonlama imzolangan institutsional asoslar ishonchlik va davomiylikni ta‘minlaydi, alohida loyihalar yoki shaxslarga bog‘liqlikni kamaytiradi hamda transchegaraviy muammolarni muvofiqlashtirilgan va shaffof tarzda hal qilish imkonini beruvchi barqaror mexanizmni yaratadi. Muhimi, ushbu tuzilma muntazam transchegaraviy almashinuvlarni ta‘minlash uchun aynan muvofiqlashtirish faoliyatiga yo‘naltirilgan mustaqil budjet bilan qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Bunday mexanizm mavjud muhofaza etiladigan hududlararo hamkorlikning o‘rmini bosmaydi, balki uni to‘ldiradi va unga siyosiy quvvat beradi.



← Zarafshon qirg'ovuli.
Rasm: T. Abduraupov

4. SEKTORLARARO TEXNIK SALOHİYATNI MUSTAHKAMLASH. Samarali transchegaraviy muhofaza turli sohalarning texnik salohiyatiga maqsadli sarmoya kiritishni talab etadi. Manfaatdor tomonlar transchegaraviy tabiatni muhofaza qilishni uzoq muddatli jarayon sifatida qanday amalga oshirish hamda ekotizimlar tanazzuli inson farovonligi va turmush darajasiga qanday bevosita ta'sir ko'rsatishi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishlari lozim. Salohiyatni oshirish chora-tadbirlari suv xo'jaligi idoralari, tuman hokimiyatlari va qarorlari ekotizim dinamikasiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa tegishli tarmoqlarni ham qamrab olishi shart. Bundan tashqari, muhofaza etiladigan hududlar xodimlari ekologik monitoring, moliyaviy resurslarni jalb qilish, loyihalarni boshqarish va xalqaro hamkorlik bo'yicha o'z ko'nikmalarini rivojlantirishlari zarur. Transchegaraviy muhofaza qilish katta resurslarni talab etuvchi jarayon bo'lganligi sababli, xodimlar yetarli moliyaviy mablag'lar va texnik jihozlar bilan ta'minlanishi kerak. Ishlarning davomiyligini ta'minlash maqsadida transchegaraviy muvofiqlashtirish, ilmiy monitoring va loyihalarni boshqarish bo'yicha maxsus shtat birliklari muhofaza etiladigan hududlar xodimlarining mavjud ish yuklamasiga qo'shimcha qilinmasdan, balki mas'ul muassasalar tuzilmasiga rasman kiritilishi lozim.



Buxoro bug'usi. Rasm: B. Mardonov



Implemented by:

giz Deutsche Gesellschaft
für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH



**Succow
Stiftung**

Ushbu ijtimoiy-ekologik sharh Germaniya hukumati topshirig'iga binoan Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) GmbH tomonidan amalga oshirilayotgan "Markaziy Osiyoda yer resurslaridan kompleks va iqlim o'zgarishlariga mos holda foydalanish" (ILUCA) mintaqaviy dasturi doirasida ishlab chiqilgan.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun

Ronja Braitsch, muallif

✉ ronja.braitsch@outlook.de yoki

Rustam Murzakhanov Zukkov jamg'armasidan

✉ rustam.murzakhanov@succow-stiftung.de

bilan bog'laning.